

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

BEBITOV MAQSUD ABDIRASULOVICH

**TURKIYADAGI O‘ZBEK (TURKISTONLIK)LAR DIASPORASINING
SHAKLLANISHI, TARIXIY BOSQICHLARI VA HOZIRGI HOLATI:
TARIXIY TAHLIL (XVI–XXI asr boshlari)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Bebitov Maqsud Abdirasulovich

Turkiyadagi o‘zbek (turkistonlik)lar diasporasining shakllanishi, tarixiy bosqichlari va hozirgi holati: tarixiy tahlil (XVI–XXI asr boshlari).....5

Бебитов Максуд Абдирасулович

Формирование, исторические этапы и современное состояние узбекской (туркестанской) диаспоры в Турции: исторический анализ (XVI – начало XXI вв.).....27

Bebitov Maqsud Abdirasulovich

The Formation, Historical Stages, and Current State of the Uzbek (Turkestani) Diaspora in Turkey: A Historical Analysis (16th – Early 21st Centuries).....53

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

BEBITOV MAQSUD ABDIRASULOVICH

**TURKIYADAGI O‘ZBEK (TURKISTONLIK)LAR DIASPORASINING
SHAKLLANISHI, TARIXIY BOSQICHLARI VA HOZIRGI HOLATI:
TARIXIY TAHLIL (XVI–XXI asr boshlari)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1079 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.https://urdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaitov Shadmon Ahmadovich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kurshat Yildirim

tarix fanlari doktori, professor

Matyakubova Muborak Madrimovna

tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil "12" sentabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14 uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00. E-mail.: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1042 raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "29" avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil "29" avgust dagi 19 - raqamli reestr bayonnomasi)



U. I. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

D. R. Atamurodova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

X. X. Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida globallashtirish jarayonlarining intensivlashuvi, mintaqaviy ziddiyatlar va ijtimoiy-transformatsiyalar natijasida xalqaro migratsiya oqimlari zamonaviy dunyo tartibotining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda demografik ko'chishlar nafaqat iqtisodiy omillar, balki xavfsizlik, siyosiy barqarorlik va milliy o'zlikni saqlash ehtiyojlari bilan ham asoslanmoqda. O'zbekiston xalqining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli sabablarga ko'ra yuzaga kelgan migratsiya to'liqlari natijasida xorijda, xususan, Turkiya Respublikasida o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlarga ega bo'lgan o'zbek (turkistonlik)lar diasporasining shakllanishiga olib keldi. Mazkur jamoaning shakllanish xronologiyasi, ijtimoiy-huquqiy maqomi va vatan bilan aloqalari tarixini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish bugungi kun tarix fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Turkiya Respublikasi o'zbek diasporasi son jihatdan salmoqli va tarixiy ildizlari o'n asrlik davrni qamrab oluvchi strategik muhim jamoa hisoblanadi. O'zbek (turkistonlik)larning O'rta Osiyodan Kichik Osiyoga ko'chishi bir necha tarixiy bosqichlarda sodir bo'lgan bo'lib, bu jarayon ikki xalq o'rtasidagi savdo-sotiq, diplomatik va madaniy aloqalarning mustahkamlanishida ko'prik vazifasini o'tagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 30-aprelda O'zbekiston va Turkiya Respublikasi rasmiy delegatsiyalari uchrashuvidagi nutqida Turkiya Prezidenti va turk rasmiy delegatsiyasiga murojaati qilib: "Yangi tarixda o'zbek millatiga mansub ko'plab insonlar bu yurtda yashab, uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan – buni siz azizlarga yaxshi ma'lum deb o'ylayman. Masalan, Turkiya Respublikasining birinchi davlat madhiyasi muallifi Mehmet Akif Ersoy, sobiq davlat vaziri Ahad Andijon, deputat O'rxon Qovunji kabi taniqli shaxslar haqida sizlar bizlardan ham ko'proq bilasiz. Turk xalqi o'zbek zaminini o'zi uchun muqaddas deb bilgan va uni "ota yurtimiz" deb e'zozlaydi" kabi tarixiy fikrlarni bildirgan edi¹. Mazkur e'tirof Turkiyadagi o'zbek diasporasining nafaqat o'tmishini, balki bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy nufuzini ham ilmiy asoslash zaruratini oshiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlik qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2017–2025-yillarda xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash va takomillashtirishga oid bir qator Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, "Vatandoshlar jamoat fondi"ning tashkil etilishi, "Vatandosh" guvohnomasi va kartasining joriy qilinishi hamda chet eldagi o'zbeklar bilan ishlashning strategik maqsadlari belgilanishi Turkiya o'zbeklari misolida diasporashunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishni taqozo etmoqda. Turkiya-O'zbekiston o'rtasidagi ko'p yo'nalishli hamkorlikning rivojlangan hozirgi sharoitida, ushbu mamlakatdagi o'zbek diasporasi tarixini o'tmish, bugun va kelajak kabi uch o'lchovda o'rganish mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

¹ Sh.M.Mirziyoyev. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". Tom -2. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2018. – B 385.

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli, 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-sonli, 2025-yil 19-martdagi PF-52-sonli Farmonlari hamda 2018-yil 25-oktabrdagi PQ-3982-sonli, 2021-yil 11-avgustdagi PQ-5220-sonli va 2024-yil 20-noyabrdagi PQ-397-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish va ularning huquqiy maqomini mustahkamlashga oid vazifalar ushbu dissertatsiya ishining konseptual asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sovet hokimiyati yillarida Turkiya Respublikasi va boshqa mamlakatlarda yashovchi o‘zbek (turkistonlik) muhojirlarga nisbatan kommunistik mafkura va sinfiylik nazariyasi asosida “vatan xoinlari”, “sotqin”, “vatanfurush”, “burjua malaylari”, “imperializm yaloqxo‘ri” kabi salbiy va haqoratli atamalar qo‘llanilgan. Bu atamalar muhojirlarga nisbatan bir xil andozadagi salbiy munosabatni shakllantirgan.

Muhojir o‘zbeklar mavzusi sovet davrida taqiqlanganligi sababli, sovet matbuoti va adabiyotida Turkiya muhojirligiga oid ishonchli ma‘lumotlar deyarli uchramaydi. Maxsus ko‘rsatmalar asosida yozilgan ayrim nashrlarda muhojirlar faqatgina tanqid va qoralash nuqtayi nazaridan tasvirlangan, bu esa noxolis ma‘lumotlarni keltirib chiqarishga sabab bo‘lgan. Shu tufayli ushbu mavzudagi tadqiqotlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yaratilgan tadqiqotlar va asarlar.
2. Xorijiy adabiyotlar.

Sovet hokimiyatining so‘nggi bosqichida, ya‘ni qayta qurish, oshkoralik va demokratiya shiorlari ostida (1985–1991-yillar) hamda mustaqillikning dastlabki yillarida “o‘zbek muhojirligi” mavzusiga qiziqish ortgan. Taqiqlangan ushbu masala bo‘yicha ilk bor O‘zbekiston matbuotida muloqot, shaxsiy suhbat, maqola va xabar janrlarida materiallar chop etila boshlandi. Ushbu materiallar xorijdagi o‘zbeklarni O‘zbekistondagi o‘zbeklar bilan tanishtirish maqsadini ko‘zlagan.

Gazeta va jurnallarda keltirilgan ma‘lumotlarning ko‘pligi ularni to‘liq qamrab olishni qiyinlashtirmoqda. Shu sababli faqatgina Turkiya Respublikasidagi o‘zbeklar tarixiga oid ma‘lumot va maqolalarni sanab o‘tish maqsadga muvofiq deb topildi.

1990-yillarning boshlarida To‘ra Mirzo, Tohir Qahhor, Sobir Sayxon, Bo‘riboy Ahmedov, F.Jo‘rayev, Rajabboy Ota Turk (Raupov R.), Shahobiddin Yassaviy, Islom Usmonov, Azim Suyun, R. Shamsutdinov, Sh.Turdiyev² kabi

² Мирзо Т. Туркия ва Туркистон йўлларида // Ёшлик. – Тошкент, 1998. – №2. – Б. 44–45. Қахҳор Т. Туркия хур турклар учун // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1991. 11 ноябрь. Сайхон С. Очиқ хат //

mualliflarning maqolalari chop etildi. Ushbu maqolalar orqali Turkiyadagi o'zbeklar va ularning O'zbekistondagi qarindoshlari haqida ma'lumotlar taqdim etildi. Shuningdek, Turkiyadagi o'zbek ziyolilari haqidagi maqolalarda ancha fikr-mulohazalar bildirildi.

1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida Turkiyadagi o'zbeklar haqida ma'lumot berishga qaratilgan tadqiqotlar e'tiborga molik bo'la boshladi. Jumladan, F.Ergashev, M.Zohidov, R.Shamsutdinov, A.Qodirov, Ibrohim Yorqin va Sh.A.Hayitov³ kabi mualliflarning maqolalari manbalar asosida Turkiyadagi o'zbeklarning hayoti va faoliyati haqida boy ma'lumotlar keltirgan. Bu tadqiqotlar ilmiy jamoatchilikni Turkiyadagi o'zbeklar bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida xorijdagi o'zbeklar haqida bir qator jiddiy tadqiqotlar, kitoblar, monografiyalar va risolalar nashr etildi. Ularda Turkiyadagi o'zbeklar moddiy-madaniy merosi, ijtimoiy tarkibi, soni va mashg'ulotlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Muhojir o'zbeklar tarixining ilk tadqiqotchilaridan bo'lgan Sh. A.Hayitovning monografiyalari alohida e'tiborga molikdir.

XX asr oxiri va XXI asrning ikkinchi o'n yilligida O'zbekistonda T.Qahhor, M.Xo'jayev, Sobir Sayxon, Jo'ra Qori Bo'tako'z, Sh.Turdiyev, Ahad Andijon, Nurettin Hatunog'lu kabi mualliflarning kitoblari nashr etildi. Ushbu nashrlarda Turkiyadagi o'zbeklar haqida qisman ma'lumotlar berilgan. Xorijdagi o'zbeklar mavzusida olib borilayotgan jiddiy ilmiy tadqiqotlar tufayli oz bo'lsa-da, bir qator dissertatsiyalar ham yaratildi.

Shu o'rinda G.Azamova, Sh.A.Hayitov, A.Yo'ldoshev va A.Mahmudov⁴ larning dissertatsiya ishlarini sanab o'tish mumkin. G.A.Azamovanning dissertatsiyasida xorijdagi o'zbeklarning ijtimoiy va siyosiy-huquqiy muammolari falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Sh.A.Hayitov o'z dissertatsiyasida XX asr,

Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1990. 27 ноябрь. Аҳмедов Б. Ўзбеклар // Мулоқот. – Тошкент, 1991. – №2. – Б. 53–56.; Жўраев Ф. Чинни коса синиғи: (Ватандошлик ҳақида мунгли сўз) // Халқ сўзи. – Тошкент, 1991. 5 февраль.; Ота Турк (Раунов). Ватан дея ватансиз ўтдик: (Темур Хўжа билан мулоқот) // Халқ сўзи. – Тошкент, 1991. 25 январь.; Яссавий Ш. Ёшлар дунёни кўришсин // Ёшлик. – Тошкент, 1992. – №7–8. – Б. 33–35.; Усмонов И. Соҳилга интилган тўлқинлар: (Туркиялик Аҳад Андижон билан суҳбат) // Мулоқот. – Тошкент, 1991. – №6. – Б. 44–47.; Суён А. Ўзлик: (Ўзбекистон–Туркия ҳамкорлик кундалиги) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1991. 8 ноябрь.; Шамсуддинов Р. Усмон Хўжа ватан хоини эмас эди // Халқ сўзи. – Тошкент, 1991. 15 ноябрь.

³ Эргашев Ф. Янги Туркиянинг отаси // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 1998. – №8. – Б. 155–159.; Зоҳидов М. Мустафо Камол Отатурк // Фан ва турмуш. – Тошкент, 2000. – №1. – Б. 11–12.; Шамсуддинов Р., Қодиров А. Шермухаммадбек ҳаётига чизгилар // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – №2. – Б. 14–15; №3. – Б. 18–19. Иброҳим Ёркин. Хотиралар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2002. – №6. – Б. 134–145.; Ҳайитов Ш.А. Мустафо Камол Отатурк ва ўзбек муҳожирлари // Бухоро. – 2001. – 6 октябрь.; Ҳайитов Ш.А. Туркияга ўзбеклар кўчиб боришининг тарихий босқичлари // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 36–38.; Ҳайитов Ш.А. Туркиядаги ўзбеклар этнографиясининг Ўзбекистон ўзбеклари билан қиёсий таҳлили // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 87–90.; Ш. Ҳайитовнинг Туркия ўзбеклари ҳақида 10 дан ортиқ илмий мақолалари chop этилган.

⁴ Азамова Г.А. Хориждаги ўзбеклар: ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий муаммолари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 1995. – 116 б.; Ҳайитов Ш.А. XX асрда ўзбек муҳожирлиги тарихи: Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. – Тошкент, 2009. – 284 б.; Mahmudov A.M. Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Farg'ona, 2022. – 140 b.; Yo'ldoshev A.B. Markaziy Osiyo o'zbeklari: tarixiy tahlil (1991–2021-yillar): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Buxoro, 2022. – 153 b.

xususan, sovet hokimiyati davridagi o'zbek muhojirligining sabablari va omillari, muhojirlik to'liqlari, shuningdek, hozirgi kunda o'zbek diasporasining shakllanish jarayoni hamda mavzuning nazariy va metodologik asoslarini keng yoritgan.

Muammoning hozirgi tarixshunoslikdagi o'rni haqida so'z yuritilganda, Turkiyadagi o'zbeklar mavzusida tadqiqot olib borgan olimlarning aksariyati muhojir o'zbeklar yoki Turkiyada yashovchi o'zbeklarning keyingi avlod vakillari ekanligi aniqlandi.

Turkiyada istiqomat qilgan o'zbeklar va ularning hozirgi avlodlari, xususan, Shahobiddin Yassaviy, Ahad Andijon, Chig'atoy Ko'char, Murad Yavan, Sobir Sayxon va Temur Xo'ja⁵ kabi shaxslarning asarlarida Turkiyadagi o'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Mavzuni tadqiq etishda xorijiy adabiyotlar, xususan, Turkiya, AQSh va Yevropa olimlarining izlanishlari alohida o'rin tutadi. Turkiya Respublikasining tashkil topish davridagi Turkiyadagi turkistonliklar faoliyati Kasim Ener asarlarida qayd etilgan bo'lsa, Ahmad Zaki Validi To'g'on⁶ va Baymirza Hayitning fundamental asarlarida Turkiston milliy ozodlik harakati va uning Turkiya bilan aloqalari keng yoritilgan.

Xorijdagi o'zbeklar va turkistonliklar taqdiri, ularning identifikatsiyasi va madaniy hayoti masalalari S.Akiner, T.Zarcone, Okan Yeşilot hamda E. Öztürk kabi xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida o'z aksini topgan⁷. Shuningdek, Turkiyadagi o'zbek diasporasining bugungi holati, urf-odatlar va siyosiy-ijtimoiy faoliyati A.Eraslan, S.Tolkun, O.Kavuncu va Timur Xo'chao'g'li kabi mualliflarning so'nggi yillardagi izlanishlarida chuqur tahlil etilgan⁸. K.N.Abdullayevning tadqiqotlarida esa migratsiya jarayonlarining mintaqaviy jihatlarini ko'rsatib berilgan⁹.

Xorijiy adabiyotlarda Turkiyadagi o'zbeklar hayotining turli qirralari o'rganilgan bo'lsa-da, ularni yaxlit tarixiy va zamonaviy tahlil doirasida umumlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

⁵ Яссавий, Ш. Туркестон аччиқ ҳақиқатлари / Ш. Яссавий. – Истанбул, 1984. – 199 б. (Arab imlosidagi o'zbek tilida); Andican, A. Ahat. Cedidizm'den Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. – İstanbul: Emre Yayınları, 2003. – 942 bet.; Yavan, M. “Türkistanlı aydın ve siyaset adamı Osman Kocaoğlu'nun hayatı ve faaliyetleri (1878-1968)”. – İstanbul, 2019. – 100 s.; Timur Kocaoğlu "Türkistan'da Türk Subayları (1914-1923)"; Kultur yayın eviç Istanbul 2023 – S. 112.

⁶ Togan A. Zeki Velidi. Bugünkü Türkili (Türkistan) ve Yakın Tarihi. Cilt 1: Batı ve Kuzey Türkistan /– 2. Baskı. – İstanbul: Enderun Kitabevi, 1981. – 709 s.; Hayit, B. Basmacılar: Türkistan Milli Mücadele Tarihi (1917–1934) / Ankara: 1997. – 512 s.; Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана: Из истории среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – 572 с. ISBN 978-99947-55-55-X.

⁷ Akiner S. The Formation of Kazakh Identity. – London, 1995; Hayit B. Eski Sovyetler Birliği'ndeki Türklüğün ve İslam'ın bazı meseleleri. – İstanbul, 2000; Zarcone T. Sufi Networks and the Transmission of Knowledge // Journal of Islamic Studies. – 2000. – Vol. 11. – No. 2; Öztürk E. Türk asıllı Afgan mültecilerinin 1982 yılı 12 Eylül Dönemi'nde iskân ve istihdamı: YL tezi. – Ankara, 2014; Yeşilot Okan. İstanbul'daki Türkistan Tekkeleri. – İstanbul: Yeditepe, 2015.

⁸ Eraslan A. Antakya'da yaşayan Özbeklerde “Tüvekli Beşik” geleneği // Çukurova Araştırmaları Dergisi. – 2016. – Cilt 2. – № 1; Tolkun S. Adanalı Türkistanlılar Şiiri // Uluslararası Beşeri Bilimler ve Eğitim Dergisi. – 2017. – № 3 (2); Kavuncu O. Özbek diasporası // Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi. – 2021. – № 128; Koçaoğlu T. Türkbilimde Arayışlar // Timur Kocaoğlu Armağanı. – Ankara, 2022.

⁹ Абдуллаев К.Н. Хитой Синьцзянидан Хуросонгача: Ўрта Осиё миграцияси XX аср тарихидан. – Душанбе: Ирфон, 2009. – 572 б.

Mavzuga oid O'zbekistonda va xorijda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkiyadagi o'zbeklar tarixi hozirga qadar yagona va kompleks tadqiqot obyekti sifatida tizimli o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur mavzuni dissertatsiya doirasida chuqur va atroflicha tadqiq etish zaruriyatini taqozo etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Turkiya Respublikasidagi o'zbeklarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini hamda ularda ro'y bergan transformatsion jarayonlarni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turkiyadagi o'zbek muhojirligining tarixiy ildizlari va bosqichlarini tahlil qilish;

Turkiyadagi o'zbek diasporasining vujudga kelishi va o'zbeklarning ushbu mamlakat hududlari bo'ylab joylashish xususiyatlarini ochib berish;

Turkiya o'zbeklarining ijtimoiy tarkibi, demografik ko'rsatkichlari va an'anaviy mashg'ulotlari haqida ilmiy ma'lumotlar berish;

Turkiya o'zbeklari jamiyatida kechgan transformatsion jarayonlarni tadqiq etish;

Turkiya Respublikasi davlat va hukumat rahbarlarining o'zbek muhojirlariga nisbatan yuritgan siyosatini o'rganish;

O'zbekiston va Turkiya hamkorlik aloqalari tajribasini umumlashtirish hamda istiqbolda o'zaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Turkiya Respublikasidagi o'zbeklarning tarixi, hozirgi bosqichdagi hayot tarzi, ularning davlat va jamiyat rivojidagi ishtiroki hamda O'zbekistonga munosabati masalalari.

Tadqiqotning predmeti. Turkiyadagi o'zbeklarning tarixiy o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jarayonlardagi ishtiroki hamda O'zbekiston bilan hamkorlikdagi faoliyatini belgilovchi qonuniyatlar va xususiyatlar yig'indisidir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tadqiqot olib borishning tarixiy-xronologik izchillik, analiz va sintez, qiyosiy-tarixiy tahlil, obyektivlik, sinxron va diaxron yondashuv kabi metod hamda usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik) jamoalarining shakllanishi XVI asrdan boshlangan bo'lib, ular ushbu mamlakat hududiga ijtimoiy, iqtisodiy, diniy va siyosiy omillar ta'sirida bir necha tarixiy bosqichlarda kelib joylashgan. Jumladan, dastlabki bosqich (XVI asr – XX asr boshlari) diniy-ma'rifiy va diplomatik aloqalar davri, ikkinchi bosqich (1920–1939-yillar) siyosiy-repressiv muhojirlik va Turkiya Respublikasining shakllanish davri, uchinchi bosqich (1945–1952-yillar) urushdan keyingi iqtisodiy va huquqiy joylashuv, to'rtinchi bosqich (1953–1989-yillar) mintaqaviy inqirozlar va etnik anklavlarning shakllanishi, beshinchi bosqich (1991-yildan hozirgi kungacha) mustaqillik davri va institutsional tizimlashuvdan iborat ekanligi dalillangan;

Turkiyadagi muhojir o'zbeklar mamlakatning deyarli barcha viloyat va shaharlari bo'ylab tarqalgan, ayniqsa Istanbul, Adana, Antakiya, Shanliurfa, Izmir, Anqara, Konya va Mersin kabi yirik markazlarda ko'p sonli jamoalar shakllangan, ular o'zlarining milliy uyushmalari, tashkilotlari va matbuot organlari orqali institutsional jihatdan mustahkamlab borganligi ochib berilgan;

Turkiyadagi o'zbeklar orasidan yillar davomida Mehmet Akif Ersoy, Ahad Andijon kabi taniqli davlat va jamoat arboblari, shuningdek, Ahmadjon Ibrohim O'qay, Ibrohim Yorqin, Saidali Anqara, Ahmad Naim O'ktam, Tohir Chig'atoy, Temur Xo'ja, Orhon Qovunji, Solih Ekinqul, Mejididdin Deli kabi ilm-fan sohasining yetuk professor va fan doktorlari yetishib chiqqanligi hamda ularning Turkiya iqtisodiyoti, fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi asoslangan;

Turkiyadagi o'zbek jamoalari o'zbek tili, milliy urf-odat va an'analarni, o'zbekona maishiy turmush tarzini uzoq vaqt nisbatan barqaror saqlab qolganligi, shu bilan birga keyingi avlodlar orasida transformatsiya va assimilyatsiya (turklashuv) jarayonlari kuzatilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari va ilmiy xulosalari asosida oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga kiritilgan "O'zbekiston tarixi", "Etnologiya" va "Vatandoshlar tarixi" fanlari o'quv materiallarini Turkiyadagi o'zbek diasporasiga oid ma'lumotlar bilan boyitishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida XVI–XXI asr boshlarida Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik)lar diasporasining shakllanish bosqichlari, migratsion oqimlar xususiyatlari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rniga oid yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan;

Turkiyadagi o'zbek jamoalarining etnomadaniy qiyofasi, tili va urf-odatlarini saqlash mexanizmlari hamda ularning ikki davlat aloqalaridagi o'zni ilk bor XVI–XXI asrlar doirasida o'rganilib, aniqlangan muammolar bo'yicha xalq diplomatiyasini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, dissertatsiyada qo'yilgan masalalar XVI–XXI asr boshlarida Turkiyadagi o'zbeklar tarixiga doir ishonchli arxiv hujjatlari, jumladan, Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari (Osmanlı ve Cumhuriyet arşivleri), O'zbekiston Milliy arxivi materiallari, dala-etnografik tadqiqot natijalari, davriy matbuot nashrlari va statistik ma'lumotlarga tayanib yozilgan va tahlil etilgan. Manbalarning xilma-xilligi tadqiqotda qo'yilgan masalalarni qiyosiy tahlil etish imkonini berish bilan birga, tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Turkiyadagi o'zbek diasporasi tarixini tarixiy-qiyosiy va muammoli xronologik tahlil qilish orqali mazkur muammoga oid nazariy xulosalardan foydalanish mumkinligi, dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar asosida aholining xorijdagi vatandoshlar va ularning madaniy merosi haqidagi tushunchalarini kengaytirish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda keltirilgan faktik materiallar asosida darslik va o'quv qo'llanmalarni yangi ma'lumotlar bilan boyitish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda, xalq diplomatiyasi va targ'ibot jarayonlarida foydalanish, muzeylarning "Vatandoshlar tarixi" bo'limlarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik)lar diasporasining shakllanishi, tarixiy bosqichlari va hozirgi holati: tarixiy tahlil (XVI–XXI asr boshlari)" mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishidagi ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik) jamoalarining XVI asrdan XXI asr boshlarigacha bo'lgan beshta tarixiy bosqichda (diniy-ma'rifiy va diplomatik aloqalar davri, siyosiy-repressiv muhojirlik va respublika shakllanish davri, urushdan keyingi iqtisodiy va huquqiy joylashuv, mintaqaviy inqirozlar va etnik anklavning shakllanishi, mustaqillik davri va institutsional tizimlashuv) kelib joylashganligi, ularning Istanbul, Adana, Izmir, Anqara, Konya, Hatay (Ovakent) kabi yirik strategik markazlarda yirik jamoalar bo'lib o'rnamaganligi hamda milliy uyushmalari institutsional jihatdan mustahkamlanib borayotganligi to'g'risidagi xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 23-sentabrdagi 10/603-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy xulosalar xorijdagi vatandoshlarning boy tarixiy merosini keng jamoatchilikka yetkazishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan;

O'zbek diasporasi vakillari orasidan yetishib chiqqan taniqli davlat va jamoat arboblari (Mehmet Akif Ersoy, Ahad Andijon) hamda ilm-fan namoyandalari (Ahmadjon Ibrohim O'qay, Ibrohim Yorqin, Saidali Anqara, Ahmad Naim O'ktam, Tohir Chig'atoy, Temur Xo'ja, Orhon Qovunji, Solih Ekinqul, Mejididdin Deli, Nurettin Hatuno'g'li)ning Turkiya iqtisodiyoti, fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi asoslanganligi hamda o'zbek jamoalarining til, urf-odat va an'analarni saqlab qolish bilan birga keyingi avlodlar orasida tabiiy assimilyatsiya jarayonlari kechayotganligi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 23-sentabrdagi 10/603-sonli dalolatnomasi). Olingan natijalar yoshlar qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilgan;

Turkiyadagi o'zbek diasporasi bilan o'zaro aloqalarni takomillashtirishning nazariy asoslarini boyitish, O'zbekistondagi do'stlik jamiyatlari va milliy madaniy markazlarning strategik maqsadlarini belgilash hamda ularni qo'llab-quvvatlashning ilmiy-tarixiy poydevorini yaratishga oid ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Abadiyat oralab" ko'rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 4-apreldagi 02-31-1857-sonli ma'lumotnomasi). Natijada,

ushbu materiallar xorijiy mamlakatlar, xususan, Turkiya bilan tarixiy do'stlik aloqalarini mustahkamlash va ikki xalq o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy yaqinlikni ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari ilmiy konferensiyada, jumladan, 3 ta xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. Nashrlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Globallashuv jarayonlari, migratsiya oqimlarining kuchayishi hamda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning chuqur ildizlari mavzuning muhimligini belgilab berdi. Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik)lar diasporasi tarixi nafaqat migratsiya jarayonlarini o'rganishda, balki mintaqaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini tahlil etishda ham alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi. Kirishda tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, manbaviy asoslari, ilmiy yangiligi hamda natijalarning ishonchliligi yoritilgan. Shuningdek, metodologik asoslar, ilmiy-amaliy natijalar, tadqiqotning aprotatsiyasi va e'lon qilingan ishlari ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida – “Turkiyaga o'zbek (turkistonlik)larning ko'chib borishi va o'zbek diasporasining shakllanishi” masalasi tahlil qilingan.

Turkiya Respublikasi o'zbek muhojirlari uzoq asrlardan buyon ko'p sonli bo'lib yashab kelayotgan asosiy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi Turkiya hududlariga o'zbeklarning oqimi tasodifiy bo'lmay, ma'lum tarixiy sabab va omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Usmonli imperiyasi hukmronlik qilgan davrlarda O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiq, haj ziyorati va ta'lim olish ehtiyoji kabi omillar asosiy migratsion turtki bo'lib xizmat qilgan¹⁰. Ayniqsa, XV–XVI asrlarda Istanbul orqali o'tuvchi haj yo'lining faollashishi natijasida ko'plab turkistonliklar bu yerda doimiy istiqomat qilib qolganlar.

Mazkur bobning “*Turkiyada o'zbek muhojirligining tarixiy bosqichlari*” deb nomlangan birinchi paragrafida Turkiya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbek (turkistonlik) diasporasining shakllanish bosqichlari, migratsiya jarayonlarining xronologik davriyligi va ushbu mavzuni o'rganishda qo'llaniladigan nazariy-metodologik yondashuvlar tahlil etilgan.

XX asrga kelib o'zbek muhojirligining tabiati tubdan o'zgardi va u quyidagi qat'iy siyosiy bosqichlarga bo'lindi:

Siyosiy emigratsiya davri (1917–1924-yy.): Turkiston hududida sovet rejimi o'rnatilishi, milliy ozodlik harakatining (bosmachilik) mag'lubiyati va ma'naviy tazyiqlar natijasida vatanni tark etishga majbur bo'lgan vatanparvar kuchlarning bir qismi Turkiya hududidan boshpana topgan¹¹.

Urush davri va undan keyingi migratsiya (1945–1950-yy.): Ikkinchi jahon urushi asirlari bo'lgan o'zbeklar (Turkiston legionerlari) va Germaniyada ta'lim olayotgan talabalarining bir qismi sovet qatag'onidan qochib, Turkiya hukumati tomonidan qabul qilingan.

Zamonaviy davr (1991-yildan keyin): O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, Turkiyaga migratsiya oqimi yangi iqtisodiy va madaniy mazmun kasb etdi. Bu davrda talabalar, tadbirkorlar va mehnat migrantlarining oqimi hisobiga diaspora tarkibi yanada boyidi.

¹⁰ Хайитов Ш.А. Ўзбек муҳожирилиги тарихи (1917-1991). – Тошкент: ABU Matbuot-Konsalt, 2008. – Б 12.

¹¹ Азамова Г. Хориждаги ўзбеклар: ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий муаммолари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент: 1995. – 116 б.

O'zbeklarning Turkiya bo'ylab geografik tarqalishi asosan tarixiy an'analar va davlatning joylashtirish siyosati bilan bog'liq. XVI asrdan boshlab Naqshbandiya tariqati shayxlari va muridlari tomonidan asos solingan "O'zbeklar takyalari" (Özbekler tekkeleri) muhojirlar uchun boshpana va tayanch markazi vazifasini o'tagan¹². Istanbul, Bursa, Konya va Adana kabi shaharlardagi bu takyalar vatandan ajralgan muhojirlar uchun tekin oziq-ovqat va yotoqxona berib, ularning mahalliy jamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashgan¹³.

Mazkur bobning "*Turkiya hududlari bo'ylab o'zbek (turkistonlik)larning tarqalishi va o'zbek diasporasining vujudga kelishi*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida Turkiya Respublikasining turli mintaqalarida o'zbek jamoalarining joylashuv geografiyasi, ularning hududiy dispersiya xususiyatlari hamda etnik anklavlarning shakllanish jarayonlari tahlil etilgan. Shuningdek, paragrafda muhojirlarning kompakt va tarqoq yashash hududlari (Istanbul, Adana, Hatay, Konya va b.) o'rtasidagi demografik farqlar, migratsion zanjirlar orqali diasporaning institutsional vujudga kelish omillari hamda mahalliy muhit bilan ijtimoiy-madaniy moslashuvning mintaqaviy modellari tadqiq etilgan.

Tadqiqotda o'zbek jamoalarining quyidagi yirik markazlari aniqlandi:

Istanbul: Tarixiy jihatdan eng yirik markaz bo'lib, bu yerda "Sulton Tepa" va "Eyyub Sulton" kabi o'zbek takyalari atrofida bir necha avlod muhojirlar shakllangan¹⁴.

Hatay (Ovakent): 1982-yilda Afg'onistondan ko'chirib keltirilgan o'zbeklar uchun davlat tomonidan maxsus barpo etilgan hudud bo'lib, bu yerda 172 oila (789 kishi) "Iskon" qonuni asosida joylashtirilgan¹⁵. Adana va Chukurova: Bu hududlarda o'zbeklar asosan qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va tijorat bilan shug'ullanib, o'zlarining zich jamoalarini yaratganlar¹⁶.

O'zbek muhojirlari Turkiya fuqaroligini olishda va rasmiy hujjatlarda dastlab "turk gechmeni" (turk muhojiri) sifatida qayd etilgan bo'lsalar-da, o'z oilalarida o'zbek tili, milliy urf-odat va taomlarini saqlab qolganlar¹⁷. Bugungi kunda Turkiyadagi o'zbek diasporasi soni taxminan 70–75 ming kishini tashkil etishi ilmiy asoslandi. Bu jamoa ikki davlat o'rtasidagi madaniy va diplomatik aloqalarni mustahkamlovchi o'ziga xos "oltin ko'priq" vazifasini o'tamoqda¹⁸.

¹² Alkan M. Osmanlı Devleti'nde Özbek Tekkeleri. – Ankara: Vakıf Yayınları, 2019. – 180 s.

¹³ Yeşilot O. İstanbul'daki Türkistan Tekkeleri. – İstanbul: Yeditepe Yayınevi, 2015. – 240 s.

¹⁴ Övüç E. Uzbek Tekkesi Sheikhs: An Archival Study // Alfraganus International Journal. – İstanbul, 2022. – Vol. 2. – S. 58-74.

¹⁵ Resmi Gazete. İskan Kanunu № 2641 (1982-yil 11-may). – Ankara, 1982. – № 17638. – S. 11-14.

¹⁶ Cengiz A.K. Hatay Ovakent Özbek Türklerinde kimlik inşası va kültürel yapı // Folklor/Edebiyat Dergisi. – Ankara, 2019. – № 97. – S. 245-260.

¹⁷ Tolkun S. Türkiye'deki Özbeklerin Dil Özellikleri ve ağız yapısı // Türk Dilleri Araştırmaları. – Ankara, 2010. – № 20. – S. 213-228.

¹⁸ Шахназаров Б. Турция - вторая родина узбеков // Новости Турции "Босфор". 2009. 23-июнь. – URL: <http://www.vestiturkey.com/turciya-vtoraya-rodina-uzbekov>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida – “Muhojir o‘zbeklarning ijtimoiy ahvoli, soni, mashg‘uloti, o‘zlikni saqlab qolish darajasi” masalasi yoritilgan. Turkiya Respublikasida istiqomat qiluvchi o‘zbek (turkistonlik) diasporasi o‘zbek xalqining global miqyosdagi tarqalish (dispersiya) geografiyasida alohida strategik o‘rin egallaydi. XVI asrdan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan uzoq tarixiy davr mobaynida Turkiya hududiga yo‘naltirilgan ko‘p bosqichli migratsion oqimlar natijasida shakllangan ushbu jamoaning ijtimoiy tarkibi va demografik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, xalqaro migratsiya jarayonlari, etnik o‘zlikni saqlash va sotsiokultural integratsiya masalalarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bobning *“Turkiya o‘zbeklarining ijtimoiy tarkibi va soni xususida”* deb nomlangan birinchi paragrafida o‘zbek diasporasining miqdoriy ko‘rsatkichlari, tabaqaviy-ijtimoiy strukturasi va demografik dinamikasi arxiv manbalari asosida tahlil etilgan. Unda muhojirlar qatlamining ijtimoiy maqomi, o‘shish tendensiyalari hamda ularga ta’sir etgan tarixiy-siyosiy omillar qisqa va tizimli ravishda yoritib berilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Turkiyadagi o‘zbek muhojirlarining ijtimoiy strukturasi va demografik dinamikasiga oid ko‘rsatkichlar XVI–XXI asrlar xronologik doirasida tizimli ravishda yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, Usmonli imperiyasi va Turkiya Respublikasi (1923-yil 29-oktabrdan boshlab)¹⁹. davrida o‘zbek (turkistonlik) muhojirlarning ijtimoiy statusi, kasbiy faoliyati (mashg‘uloti), demografik salmog‘i va milliy identiklikni saqlab qolish darajasi maxsus monografik tadqiqotlar obyekti sifatida ko‘rib chiqilmagan.

Turkiyadagi o‘zbek diasporasining miqdoriy ko‘rsatkichlari va ijtimoiy tuzilishidagi transformatsiyalar ularning milliy o‘zligini anglash tendensiyalarini tushunishda fundamental bazadir. Ko‘p yillik migratsiya natijasida muhojirlarning turli iqtisodiy sohalarga jalb etilishi va turk jamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi natijasida o‘zbek milliy kimligining yangi “transmilliy” shakllari yuzaga kelmoqda.

Biroq geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida mazkur hududlardan Turkiyaga yo‘naltirilgan re-migratsiya²⁰ jarayonlari diasporaning ijtimoiy tarkibini yanada murakkablashtirdi va uning Turkiyadagi demografik salmog‘ini sezilarli darajada oshirdi. O‘zbek diasporasining Afg‘oniston, Sharqiy Turkistondan Eron va Turkiya yo‘nalishlarida shakllanishiga bir qator fundamental omillar zamin yaratgan. Birinchidan, geografik determinantlar va tarixiy aloqalar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Mazkur hududlar Turkiston mintaqasi bilan bevosita chegaradosh bo‘lib, asrlar davomida yagona iqtisodiy, diplomatik va madaniy makonni tashkil etgan. Ikkinchidan, konfessional va etnomadaniy yaqinlik omili muhojirlarning yangi

¹⁹ Eroğlu, Hamza. “Türkiye Cumhuriyetinin İlâni” // Atatürk Araştırma Merkezi Dergisi. 2003. – № 56. – S. 435.

²⁰ Migratsiya tadqiqotlarida “re-migratsiya” termini qaytish migratsiyasining (return migration) ko‘p qirrali shakli sifatida qo‘llanilib, muhojirlarning geografik harakati bilan birga ularning oilaviy, iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlarini ham qamrab oladi. Mazkur tushuncha “repatriatsiya” terminidan o‘zining murakkab va aylana (circular) xarakteri bilan farqlanadi. Batafsil qarang: Haas de H. The Internal Dynamics of Migration Processes: A Theoretical Inquiry // Journal of Ethnic and Migration Studies. 2010. – Vol. 36. – № 10. – P. 1587–1617. DOI: 10.1080/1369183X.2010.521313.

muhitga moslashishini osonlashtirgan. Mazkur mamlakatlardagi tub aholining aksariyati o'zbeklar kabi Islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qilishi, umumiy an'ana va turmush tarziga egaligi migratsiya oqimini kuchaytirgan.

Arxiv hujjatlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Afg'onistondagi o'zbek muhojirlarining qariyb 30% qismi bevosita 1917-yilgi oktyabr to'ntarishi va undan keyingi majburiy kollektivlashtirish siyosati davrida vatanini tark etganlar toifasiga kiradi²¹.

Xususan, 1960-yillarda Afg'onistondan 400–500 atrofidagi o'zbek oilalari Turkiyaga, asosan Adana shahriga ko'chib kelgan. Ushbu jamoaning bir qismi keyinchalik AQShga re-migratsiya qilgan bo'lsa, boshqalari Yaqin Sharq va Yevropa davlatlariga yo'nalgan²². Arxiv hujjatlarining qiyosiy tahlili 1960-yillarda xorijdagi o'zbeklarning umumiy soni 1 milliondan ortiq bo'lganligini ko'rsatadi²³. 1967-yilgi kengaytirilgan hisobotda esa bu ko'rsatkich 2 million deb qayd etilib, uning 400 ming nafari Ikkinchi jahon urushidan keyin vataniga qaytmagan muhojirlar hissasiga to'g'ri kelishi ta'kidlangan²⁴. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda diasporaning asosiy qismi Pokiston (300 ming), Saudiya Arabistoni (37 ming) va Turkiyada (20 ming) istiqomat qilgan²⁵.

Turkistonning Afg'oniston va Xitoy bilan chegaralari uzoq masofaga cho'zilgan bo'lib, ko'rib chiqilayotgan davrda ushbu hududlarda qat'iy chegara nazorati tizimi mavjud emas edi. Ayniqsa, Amudaryo sohillari va turkman sahrolari bo'ylab o'tgan chegara chiziqlarini to'liq nazorat qilishning texnik va jismoniy imkonsizligi²⁶ aholining muhojirlikka chiqish jarayonini nisbatan soddalashtirgan. Sharq mamlakatlari hukumatlarining, xususan, Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan so'ng turkiy kelib chiqishiga mansub shaxslarga nisbatan yuritgan bag'rikenglik siyosati muhojirlar uchun huquqiy va ma'naviy kafolat bo'lib xizmat qildi. Sharqona axloqiy prinsiplarga asoslangan ijtimoiy yordam va ba'zi davlat rahbarlarining xayrixoh munosabati o'zbek jamoalarining ushbu mamlakatlarda tezkor o'rnatishiga imkon berdi.

Turkiyadagi o'zbek diasporasi ijtimoiy tarkib jihatidan geterogen (turli-tuman) xususiyatga ega. Ularning asosiy qismini tugatilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR), Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) va Turkiston ASSR hududlaridan kelgan muhojirlar tashkil etgan²⁷. Muhojirlarning tabaqaviy strukturasi quyidagi guruhlardan iborat edi:

- Dehqonlar va chorvadorlar;
- Hunarmand va mayda ishlab chiqaruvchilar;
- Savdogarlar (tijorat vakillari);
- Ziyolilar va diniy ulamolar;
- Xorijda tahsil olayotgan talabalar.

²¹ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 89- jild, 43-varaq.

²² O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 88-jild, 82-varaq.

²³ O'zR MA, R-2821-fond, 1-ro'yxat, 333-jild, 75-76-varaqlar.

²⁴ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8-jild, 86-varaq.

²⁵ O'sha manba. 86-87 varaqlar

²⁶ Хайитов Ш.А. “Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991)”. – Тошкент: ABU Matbuot-Konsalt, 2008. – Б. 94.

²⁷ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 71- jild, 19-20-varaqlar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1917–1938-yillar oralig'ida o'zbek muhojirlari vatanlarini tark etish jarayonida o'zlarining an'anaviy kasbiy muhitidan uzilib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishga majbur bo'ldilar. Ushbu transformatsiya jarayoni muhojirlarning ijtimoiy tabaqalanishida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi: ko'plab ziyoli va savdogarlar mehnat muhojirlari yoki hunarmandlar sifatida qayta ixtisoslashishga to'g'ri keldi.

Turkiyadagi o'zbek diasporasining ijtimoiy-professional qiyofasini tahlil qilishda quyidagi asosiy tabaqaviy guruhlarini ajratib ko'rsatish metodologik jihatdan o'rinlidir:

1. Agrar-industrial guruh (Dehqonlar va hunarmandlar). Ushbu toifa muhojirlarning eng salmoqli qismini tashkil etib, dastlab gilamdo'zlik, duradgorlik, zargarlik va temirchilik kabi an'anaviy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lganlar. Biroq yangi ijtimoiy-iqtisodiy muhitda bozor talablari va texnologik sharoitlar ushbu kasblarni transformatsiya qilishni taqozo etdi. Natijada, ko'plab muhojirlar ijaraga yer olib dehqonchilik qilishga yoki ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida mehnat muhojiri sifatida adaptatsiyalashishga majbur bo'ldilar.

2. Tijorat va tadbirkorlik guruhi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, muhojir o'zbeklar orasida kichik va o'rta biznes subyektlari jadal shakllandi. Bu davrda savdo faoliyati oddiy tovar ayirboshlash bosqichidan xalqaro bozorlarda ta'minot zanjirlarini tashkil etish, logistika va reklama kabi murakkab iqtisodiy munosabatlar darajasiga ko'tarildi. O'zbek diasporasi vakillari tomonidan xususiy firma va kompaniyalarning tashkil etilishi nafaqat muhojirlarning shaxsiy farovonligini, balki diasporaning Turkiyadagi umumiy iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim faktorga aylandi.

3. Intellektual qatlam (Ziyolilar va ilmiy xodimlar). 1922-1923-yillarda Turkiston hukumatining yo'llanmasi bilan xorijga o'qishga yuborilgan va siyosiy vaziyat tufayli Turkiyada qolib ketgan talabalar diasporaning intellektual yadrosini tashkil qildi. Ushbu guruh vakillari orasidan fan doktorlari, professorlar va nufuzli oliygoh o'qituvchilari yetishib chiqdi. Ularning ilmiy va pedagogik faoliyati Turkiyadagi o'zbek diasporasining sotsiokultural nufuzini oshirishda fundamental rol o'ynadi.

Turkiyadagi o'zbek muhojirlarining aniq miqdoriy ko'rsatkichlarini tizimlashtirishda muayyan uslubiy qiyinchiliklar mavjud bo'lib, bu jarayon tarixiy hujjatlar va arxiv statistikasining qiyosiy-tanqidiy tahlilini talab etadi. Taxminiy statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1917–1938-yillar oralig'ida Turkiyaga ko'chib kelgan "birinchi to'lqin" o'zbek muhojirlarining soni bir necha mingdan o'n ming kishigacha bo'lgan diapazonni tashkil etgan. Biroq XX asrning o'rtalariga kelib, tabiiy demografik o'sish hamda ikkinchi va uchinchi avlod vakillarining shakllanishi natijasida o'zbek diasporasining umumiy salmog'i sezilarli darajada kengaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muhojirlarning ijtimoiy tarkibi va miqdoriy ko'rsatkichlari vaqt o'tishi bilan dinamik ravishda o'zgarib borgan. Bu holat o'zbek diasporasining yangi ijtimoiy-huquqiy sharoitlarga yuqori darajadagi moslashuvchanligini va muvaffaqiyatli integratsiya strategiyalarini qo'llaganini

yaqqol namoyon etadi. Turkiyadagi o'zbek diasporasining sonini aniqlashda quyidagi omillar fundamental ahamiyatga ega:

1920-yillarning boshlarida BXSr, XXSR va Turkiston ASSRdan kelgan muhojirlar soni nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa, 1930-yillarda sovet mafkuraviy ta'qiblarning kuchayishi natijasida qo'shimcha migratsiya to'liqlari kuzatildi²⁸.

Muhojirlarning Turkiyada tug'ilgan avlodlari diasporaning miqdoriy bazasini kengaytirdi. Ushbu avlodlarning aksariyati Turkiya fuqaroligini qabul qilgan bo'lsa-da, madaniy-ma'rifiy darajada o'zbek milliy identikligini saqlab qolishga intildi.

Turkiya Respublikasining o'sha davrdagi rasmiy statistikasi muhojirlarni etnik guruhlar bo'yicha emas, balki "kelgan mamlakati" yoki "fuqaroligi" bo'yicha ro'yxatga olgan. Bu holat o'zbek muhojirlarining aniq sonini boshqa turkiy xalqlardan (qozoq, qirg'iz, uyg'ur) ajratib ko'rsatishda muayyan statistik noaniqliklarni keltirib chiqaradi. XX asrning 50-yillariga kelib, Turkiyadagi o'zbek diasporasining umumiy soni o'rtacha 20–30 ming kishini tashkil etganligi aytiladi²⁹. Biroq bu ko'rsatkichlar nisbiy xarakterga ega bo'lib, demografik manzarani yanada aniqlashtirish uchun arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlarning qiyosiy-tanqidiy tahlili talab etiladi.

Turkiyadagi o'zbek muhojirlarining kasbiy moslashuvchanligi (professional adaptation) hal qiluvchi omil bo'ldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muhojirlar dastlab o'zlarining an'anaviy kasblarini saqlab qolishga intilgan bo'lsalar-da, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va bozor talablari ularni yangi kasb-hunarlarni egallashga majbur qildi³⁰.

Muhojirlar orasida an'anaviy dehqonchilik, gilamdo'zlik, zargarlik, temirchilik va duradgorlik kabi hunarlar keng tarqalgan edi. Biroq yer resurslarining cheklanganligi va Turkiyadagi agrar munosabatlarning o'ziga xosligi sababli, ko'plab o'zbeklar ijarador dehqon sifatida faoliyat yurita boshladilar.

Tijorat faoliyati o'zbek diasporasining iqtisodiy hayotida yetakchi o'rin tutdi. Ular nafaqat ichki bozorlarda, balki xalqaro savdo tarmoqlarida ham faol ishtirok etdilar. Savdo munosabatlari oddiy ayirboshlash darajasidan logistika, marketing (reklama) va ta'minot kabi zamonaviy iqtisodiy ko'rinishlarga ko'tarildi. Xususiy kompaniyalarning tashkil etilishi diasporaning Turkiya jamiyatidagi ijtimoiy statusini yanada mustahkamladi.

Turkiyadagi o'zbek muhojirlarining ilmiy-ma'rifiy faoliyati alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. 1922–1923-yillarda Turkiston hukumatining yo'llanmasi bilan xorijga o'qishga yuborilgan va siyosiy vaziyat tufayli Turkiyada qolib ketgan talabalar diasporaning intellektual yadrosini tashkil qildi. Ushbu guruh vakillari orasidan fan doktorlari, professorlar va nufuzli oliygoh o'qituvchilari yetishib chiqdi. Ularning ilmiy va pedagogik faoliyati Turkiyadagi o'zbek diasporasining sotsiokultural nufuzini oshirishda fundamental rol o'ynadi.

²⁸ Andican, A. Ahat. Ceditizmden Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi / A. Ahat Andican. – İstanbul : Emre Yayınları, 2020. – 308 s.

²⁹ O'zR MDA. R-2822-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jild, 111-varaq; 88-yig'ma jild, 40-varaq.

³⁰ Хайитов Ш.А. "Ўзбек муҳожирилиги тарихи (1917-1991)". – Тошкент: ABU Matbuot-Konsalt, 2008. – Б. 115.

Turkiyadagi o'zbek muhojir ziyolilarining faoliyati nafaqat akademik yutuqlar, balki milliy g'oyani tizimlashtirish va ommalashtirish bilan ham tavsiflanadi. Xususan, sotsiolog olim Tohir Chig'atoy (1902–1984) tomonidan yaratilgan yetti jildlik “Turkiston bibliografiyasi” (Qizil imperializm rukni ostida) muhojirlikdagi turkistonshunoslik fanining eng yirik bibliografik yodgorligi hisoblanadi. Shuningdek, uning sotsiologiya fanidan yozgan darsliklari Turkiya oliy ta'lim tizimida uzoq yillar foydalanilgani diasporaning intellektual nufuzidan dalolat beradi.

O'zbek muhojirlarining amaliy sohalardagi hissasi ham salmoqli bo'lib, chorvachilik sohasida o'zbek mutaxassislarining seleksion mehnati natijasida Turkiyada zotdor “kvirjak” qo'chqor turining yaratilishi iqtisodiy samaradorlikka xizmat qilgan³¹.

1950–1960-yillarda Turkiyadagi o'zbeklar orasida milliy o'zlikni saqlashning an'anaviy mexanizmlari institutsional tus oldi. Xususan, o'zbek xalqiga xos “gap”, “gashtak”, “jo'ra” kabi yig'inlar muhojirlik sharoitida ijtimoiy integratsiya va milliy tarbiya markazlariga aylandi. Ushbu yig'inlarda o'zbek tilidagi adabiyotlarni jamoaviy mutolaa qilish, milliy musiqalarni tinglash va yosh avlodga ona tilida ta'lim berish amaliyoti yo'lga qo'yildi³². Mazkur davrda antisovet yo'nalishidagi qator tashkilotlar vujudga keldi. Istanbul va Adanada faoliyat yuritgan “Haqiqatchilar” bo'limi hamda Adanadagi “Turkistonliklar jamiyati” (rais B.Xo'jand) muhim tashkiliy tuzilmalardan sanaladi³³. Arxiv hujjatlariga ko'ra, Abdulhamid Kochar boshchiligidagi “Adana jamiyati” butun O'rta Osiyodan kelgan muhojirlarni birlashtirgan eng qudratli markazlardan biri bo'lgan³⁴. Ushbu tashkilotlar Turkiyaning 39 ta shahrida o'z bo'limlariga ega bo'lib, Izmiridagi “Kommunizm bilan kurash jamiyati” kabi tuzilmalar bilan hamkorlikda ishlagan³⁵. Adana shahrida Ikkinchi jahon urushidan keyin tuzilgan “Turk mujohidlar darg'asi” (Mujohid turkiylar uyushmasi)ni sobiq Milliy ozodlik harakati rahbarlaridan Shermuhammadbek va Purmuhammadbek boshqargan. Uyushma a'zolari bayram kunlari milliy mustaqillik shiorlari bilan ko'chalarda namoyishlar o'tkazgan³⁶.

Turk hukumati uyushma a'zolari uchun Istanbul, Adana va Izmir shaharlarida maxsus binolar ajratgan va har yili 100 ming lira miqdorida moddiy yordam ko'rsatgan³⁷. Shermuhammadbek vafotidan keyin (1970-y.) ushbu uyushmaning roli pasaygan bo'lsa-da, uning ma'naviy merosi diaspora faoliyatiga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatdi³⁸.

1980-yillarda Turkiyaga ko'chib o'tgan o'zbeklar iqtisodiy mustaqillikka erishish bilan bir qatorda, o'zbek tilini, an'alarini va milliy qadriyatlarini saqlab

³¹ Ирисов А. Ватан меҳри. Гулистон; 1995, – № 4. – 45 б.

³² O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8- yig'ma jild, 89-varaq.

³³ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8- yig'ma jild, 96-varaq.

³⁴ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8- yig'ma jild, 126-127 varaq.

³⁵ O'sha manba. 127-varaqlar.

³⁶ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8- yig'ma jild, 9-varaq.

³⁷ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8- yig'ma jild, 127-varaqlar.

³⁸ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 8- yig'ma jild, 127-128-varaqlar.

qolishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning Turkiyadagi demografik va iqtisodiy nufuzi ortishi nafaqat muvaffaqiyatli adaptatsiya, balki o'zbek diasporasining mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorligining muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Turkiya o'zbeklarining ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo'lib, ular asosan o'rta tabaqa vakillarini tashkil etadi. Diaspora vakillari orasida kichik va o'rta biznes subyektlari, xususan, xususiy tadbirkorlik, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi (mehmonxona, umumiy ovqatlanish) egalari salmoqli o'rin tutadi. O'zbek muhojirlarining mehnatsevarligi va iqtisodiy moslashuvchanligi natijasida ko'plab xizmatchilar qisqa muddatda xususiy mulkdor va sarmoyador darajasiga ko'tarilgani kuzatildi³⁹.

Tadqiqot davrida o'zbek muhojirlari orasidan Turkiya ilm-fani, ta'limi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan yuqori malakali ziyolilar qatlami (professorlar, fan doktorlari, tibbiyot xodimlari, arxitektorlar) yetishib chiqdi. Xususan, Germaniyada tahsil olgan sobiq talabalarning Turkiya universitetlaridagi akademik faoliyati o'zbek diasporasining intellektual salohiyatini xalqaro miqyosda namoyon etdi. Ataturk tomonidan amalga oshirilgan islohotlar Turkiyadagi o'zbek muhojirlari uchun nafaqat tashqi qiyofa o'zgarishi, balki "fikrlash tarzining transformatsiyasi" sifatida namoyon bo'ldi⁴⁰.

Afg'onistondan ko'chib kelgan (1982-yilgi to'lqin) o'zbeklar dastlab Shanliurfa va Hatay kabi hududlarda mirishkor dehqon va chorvador sifatida o'zlarini namoyon etdilar. Biroq XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, urbanizatsiya jarayonlari va sotsial harakatchanlik natijasida agrar soha vakillarining soni kamayib, ularning sanoat, texnika va xizmat ko'rsatish sohalariga (elektrik, chilangar, usta) o'tishi tendensiyasi kuzatildi. Jamoalarning kompakt yashashi va iqtisodiy faolligi ularning etnik va lingvistik o'zligini barqaror saqlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotlar Turkiya o'zbeklarining yuksak huquqiy madaniyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Diaspora vakillari o'rtasida tilanchilik yoki ijtimoiy qashshoqlik holatlarining yo'qligi, shuningdek, Turkiya qonunlariga qat'iy rioya qilinishi ularning ma'naviy yaxlitligidan dalolat beradi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra,

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbeklar o'rtasida jinoyatchilik yoki sudlashish holatlarining minimal darajada ekanligi (bor-yo'g'i ikki holat) jamoaning axloqiy barqarorligini tasdiqlaydi.

Muhojir tashkilotlari (TMB, Turkistonliklar jamiyati va boshqalar) hamda an'anaviy ijtimoiy institutlar (gap, gashtak) o'zbek xalqining milliy o'zligini saqlashda strategik mexanizm vazifasini o'tagan. Arxiv fondlarida saqlanayotgan minglab maktublar muhojirlarning O'zbekistonga bo'lgan cheksiz sog'inchini, qavm-qarindoshlik rishtalariga sadoqatini va milliy mustaqillik g'oyalarining avlodlararo uzviyligini isbotlovchi muhim manbalar hisoblanadi.

³⁹ Kirişçi K. Settlement of Turkic-speaking groups as "Settled Nomads" in Turkey // International Migration Review. 1996. – Vol. 30. – No. 2. – P. 490-492.

⁴⁰ Çelebi E. Atatürk ve Türk Dünyası // Kastamonu Eğitim Dergisi. 2010. Vol. 18. – No. 1. – S. 206.

Turkiyadagi o'zbek diasporasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlari va intellektual nufuzi bilan nafaqat yangi vataniga integratsiyalashdi, balki O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xalq diplomatiyasining mustahkam ma'naviy ko'prigiga aylandi.

Mazkur bobning *“Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik)larning mashg'uloti va O'zbekistonga munosabati”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida diaspora vakillarining iqtisodiy faoliyati, kasbiy moslashuvi hamda tarixiy Vatan bilan ma'naviy-madaniy aloqalari tahlil etilgan. Unda muhojirlarning an'anaviy hunarmandchilikdan zamonaviy tadbirkorlikka o'tish bosqichlari, milliy o'zlikni saqlash mexanizmlari hamda mustaqillikdan so'ng O'zbekistonga nisbatan shakllangan yangicha munosabatlar dinamikasi yoritib berilgan. Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik) muhojirlarining kasbiy faoliyati va mashg'ulotlari o'zbek diasporasining ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu bo'limda muhojirlarning kasbiy tuzilishi, iqtisodiy faolligi va milliy identiklikni saqlashdagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek muhojirlari Turkiyada dastlab an'anaviy hunarmandchilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsalar-da, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tijorat, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga keng o'tishgan.

Muhojirlarning kasbiy moslashuvi quyidagi bosqichlarda kechdi: dastlabki yillarda an'anaviy hunarlar (gilamdo'zlik, zargarlik, duradgorlik) saqlangan bo'lsa, keyinchalik urbanizatsiya va iqtisodiy modernizatsiya natijasida muhojirlar xususiy tadbirkorlikka o'tishdi. Xususan, Istanbul va Adana kabi shaharlarda o'zbeklar tomonidan tashkil etilgan kichik savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish maskanlari diasporaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minladi⁴¹.

Turkiyadagi o'zbeklarning mashg'ulotlari asosan quyidagi sohalarida namoyon bo'lgan:

Agrar soha: Shanliurfa va Hatay viloyatlarida joylashgan o'zbeklar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Ular davlat tomonidan ajratilgan yerlarda sabzavotchilik va chorvachilikni rivojlantirib, mahalliy bozorlarni ta'minlaganlar⁴².

Hunarmandchilik va sanoat: G'aziantepda charmga ishlov berish va sirlama hunarlari keng tarqalgan. Muhojirlar chilangarlik, elektrchi va ustalik kabi kasblarni egallab, kichik korxonalarda faoliyat ko'rsatganlar⁴³.

Tijorat va xizmat ko'rsatish: O'zbeklar savdo, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohalarida faol. Ular xalqaro ta'minot zanjirlarini tashkil etib, iqtisodiy barqarorlikka erishganlar.

O'zbeklarning O'zbekistonga munosabati milliy o'zlikni saqlash va vatanparvarlik ruhida shakllangan. Muhojirlar O'zbekiston bilan madaniy-ijtimoiy aloqalarni saqlashga intilgan bo'lib, milliy bayramlarni nishonlash, o'zbek tilida ta'lim berish va adabiyotni mutolaa qilish orqali avlodlarga milliy merosni

⁴¹ Хайитов Ш.А. Ўзбек муҳожирилиги тарихи (1917-1991). – Тошкент: ABU Matbuot-Konsalt, 2008. – Б. 115.

⁴² Afgan Türklerinin Türkiye'ye göçü: Ankara (A.A.). 2011. 15-avgust. – URL: <https://t24.com.tr/haber/afgan-turklerinin-turkiyeye-gocu-ankara-aa,162444> (Murojaat sanasi: 20.08.2025).

⁴³ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jild, 85–86-varaqlar.

o'tkazganlar⁴⁴. Arxiv maktublari muhojirlarning vatan sog'inchini va milliy mustaqillik g'oyalarini saqlaganligini ko'rsatadi⁴⁵.

Diaspora tashkilotlari (masalan, "Turkistonliklar madaniyati va ijtimoiy yordam jamiyati") muhojirlarning O'zbekistonga munosabatini mustahkamlashda vositachi bo'lgan. Ular madaniy loyihalar orqali turkiy xalqlar madaniyatining mushtarakligini targ'ib qilgan⁴⁶. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston-Turkiya hamkorligi kuchayib, diaspora xalq diplomatiyasida muhim rol o'ynagan⁴⁷.

Turkiyadagi o'zbeklarning mashg'uloti va O'zbekistonga munosabati ularning ikki tomonlama identifikatsiyasini namoyon etadi: yangi vataniga sodiqlik bilan birga, tarixiy vatan bilan ruhiy aloqani saqlash. Bu holat diasporaning ijtimoiy barqarorligini va madaniy boyligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida – "Turkiyadagi o'zbeklarda kechgan o'zgarishlar va mamlakat rahbariyatining muhojir o'zbeklarga munosabati" masalasi tahlil qilingan. Turkiyadagi o'zbek (turkistonlik) diasporasi transformatsion jarayonlari migratsion xronologiya va etnik-ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, beshta asosiy guruhga bo'linadi: tarixiy-diniy guruh (XVI–XX asr boshlari)⁴⁸, harbiy-intellektual guruh (1940–1950-yillar)⁴⁹, birinchi afg'on muhojirlik to'liqini (1920–1940-yillar), zamonaviy afg'on muhojirlik to'liqini (1982-yildan keyin), mustaqillik davri muhojirlari (1991-yildan keyin).

Mazkur bobning "*Turkiyadagi o'zbeklarda kechgan transformatsion jarayonlar tahlili*" deb nomlangan birinchi paragrafida diaspora vakillarining turmush tarzi va ijtimoiy ongidagi o'zgarishlar tizimli tahlil etilgan. Unda an'anaviy milliy qadriyatlarning zamonaviy muhit ta'sirida transformatsiyalashuvi hamda o'zbek milliy identikligining saqlanish tendensiyalari ilmiy asoslab berilgan.

Diasporaning lisoniy manzarasi XX asr o'rtalaridan shakllangan bo'lib, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand va Buxoro shevalarining qorishishi natijasida "muhojir o'zbekchasi" deb ataluvchi o'ziga xos lingvistik shakl vujudga kelgan⁵⁰. Lisoniy transformatsiyalar (dialektal shakllarning adabiy normaga o'tishi, dariy va fors tillari ta'siri) morfologik o'zgarishlar bilan birga kuzatiladi⁵¹.

Ona tilini saqlash milliy identifikatsiyaning asosiy sharti hisoblanib, diaspora ichida ikki qarama-qarshi jarayon – mahalliy muhitga moslashish va madaniy merosni himoya qilish – yuz bermoqda⁵². Keksa avlod vakillari yoshlarda milliy

⁴⁴ Anqarada Alisher Navoiy adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazildi [Elektron resurs] // TRT Uzbek. 2021. 21-may. – URL: <https://www.trt.net.tr/uzbek/turkdunyosi/2021/05/21/1234567890-1643039> (Murojaat sanasi: 04.06.2024).

⁴⁵ O'zR MA, R-2822-fond, 1-ro'yxat, 71-yig'ma jild, 19-20-varaq.

⁴⁶ Turkistanlilar Kultür ve Sosyal Yardım Derneği– URL: <https://turkistanlilarderneği.com/hakkimizda/> (Murojaat sanasi: 12.05.2024).

⁴⁷ Bayraktar Z. Sosyo-Kültürel ve Ekonomik Bağlamda Türkiye-Özbekistan Stratejik İlişkileri Üzerine Değişim ve Fırsatlar// Altay Stratejik Araştırmalar Dergisi. 2025. – № 1. – B. 55-62. – DOI: 7. – ORCID: 0000-0001-9515-5408.

⁴⁸ İbrahimli D. İstanbul tekkelerinin kültürel hayata etkileri (Özbek tekkeleri örneğinde). Yüksek Lisans Tezi. İstanbul Üniv., 2022. – S. 45.

⁴⁹ Tolkun S. Türkiye'deki Özbeklerin dil özellikleri. Türk Dilleri Araştırmaları, 2010. – № 20. – S. 214.

⁵⁰ Tolkun, S. Türkiye'deki Özbeklerin dil özellikleri. Türk Dilleri Araştırmaları, 2010. – № 20. – S. 219.

⁵¹ O'sha manba. ... 2010. – S. 213–223.

⁵² Эгамкул М., Хўжа Т. Мен Ватанда эмасман... // Муносабат. 1990. 30 ноябрь.

xususiyatlarni saqlash uchun O‘zbekistondan ma’naviy-metodik yordam talab qilgan⁵³.

Madaniy-ruhiy transformatsiyada shaxsiy tashabbuslar (Abdulloh Quyosh faoliyati⁵⁴, Jura Qori Butakuz tomonidan “O‘tgan kunlar” romani qayta nashri⁵⁵) va Vatandan keltirilgan ramziy buyumlarning sakrallashuvi (chinni kosalar tumor sifatida saqlanishi)⁵⁶ muhim rol o‘ynagan.

Oilaviy institutlar (palov madaniyati, o‘zbek gilami) orqali gibridd etnik o‘zlik shakllangan⁵⁷. 1982-yilgi 2641-sonli Qonun asosida muhojirlarning huquqiy maqomi belgilangan, ayollar mulkiy huquqlari tenglashtirilgan⁵⁸. Ko‘p bosqichli migratsiya trayektoriyasi (O‘zbekiston → Afg‘oniston → Pokiston → Turkiya) nutqda dariy va pushtun tillari qatlamlarini kuchaytirgan.

Ovakent jamoasida 2020-yilgi tadqiqot muvozanatli bilingvizm strategiyasini tasdiqlagan: ona tili uzatilishi 3,87 ball, kundalik muloqotdagi o‘rni 3,50 ball (Likert shkalasi)⁵⁹. Biroq yosh avlod orasida til siljishi va assimilyatsiya xavfi kuchaymoqda.

Diasporada marosimlarning haddan tashqari dabdabasi kuzatilsa-da, o‘zaro ishonch, halollik va jinoyatchilikning juda past darajasi (1930–1980-yillarda OAVda jami 2 ta salbiy xabar) ma’naviy barqarorlikni ko‘rsatadi⁶⁰.

Mazkur bobning “*Turkiya Respublikasi davlat va hukumat rahbarlarining o‘zbek muhojirlariga munosabati*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida mamlakat siyosiy elitasi va davlat arboblarning o‘zbek diasporasiga nisbatan yuritgan ijtimoiy-huquqiy siyosati tahlil etilgan. Unda hukumat darajasida ko‘rsatilgan moddiy-ma’naviy yordamlar hamda muhojirlarni joylashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan.

Mustafo Kamol Otaturk davrida (1923–1938) muhojirlarga nisbatan xayrixohlik siyosati yuritilgan. 1934-yil 21-iyunda qabul qilingan 2525-sonli “Soyadı Kanunu” (Familiya to‘g‘risidagi qonun) orqali o‘zbek ziyolilari turkcha familiyalar (masalan, O‘qay, O‘qtoy, Chig‘atoy kabi) qabul qilgan⁶¹.

Otaturk Afg‘onistondagi Turkistonlik muhojirlarning og‘ir ahvolini bilib, Afg‘onistonning Turkiyadagi elchisiga qaratib: “Agar mamlakatingizda Turkiston muhojirlariga joy (va munosib sharoit) bo‘lmasa, ularni bizga topshiring” degan qat’iy talab qo‘ygan⁶².

1930-yillarning oxirida xalqaro siyosiy vaziyat (jumladan, Turkiya-SSSR munosabatlari) tufayli muhojir yetakchilariga bosim kuchaygan. Ahmad Zaki

⁵³ O‘zR MA, R-2661-fond, 1-ro‘yxat, 256-yig‘ma jild, 201–202-varaqlar.

⁵⁴ O‘zR MA, R-2661-fond, 1-ro‘yxat, 256-yig‘ma jild, 201–202-varaqlar.

⁵⁵ O‘zR MA, R-2661-fond, 1-ro‘yxat, 106-yig‘ma jild, 41-varaq.

⁵⁶ Усманов, И. Дўстлик – миллат танламас // Коммуна (Фарғона). 1990. – № 1.

⁵⁷ Cengiz, A.K. & Türkan, H.K. ... folklor/edebiyat, 2019.

⁵⁸ Türkiye Cumhuriyeti. Kanun No: 2641. Resmî Gazete, 1982.

⁵⁹ Bosnalı, S. et al. Özbek Göçmenlerin Dilsel Uyum Stratejileri. HUMANITAS, 2020. – S. 15.

⁶⁰ Ота Турк Р. (Паупов Р.) "Ватан" дея ватансиз ўтдик... // Халқ сўзи. 1991. 25 январь.

⁶¹ Turkiya Respublikasi. Soyadı Kanunu. Kanun No: 2525. Qabul qilingan sana: 21-iyun 1934. Resmî Gazete, Sayı: 2741, 2-iyul 1934.

⁶² Саид Мубаширхон Косоний. Хотиралар // Дунё. Тошкент 1993. – № 1. – Б. 28.

Validiy To'g'on universitetdagi lavozimidan ozod etilgan, pantürkizm ayblovi bilan ta'qib qilingan⁶³, Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev mamlakatdan chiqarib yuborilgan va Turkiston Milliy Birligi faoliyati taqiqlangan⁶⁴.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Ismat Inyonyu davrida (1948–1949) sobiq sovet harbiy asirlari va Turkiston legioni a'zolari uchun muhojirlarni qabul qilish jarayoni boshlangan⁶⁵.

1952–1954-yillarda Afg'oniston orqali ko'chib kelgan o'zbek oilalariga maxsus imtiyozlar – yer-mulk, chorva mollari va 5 yil muddatga soliqlardan ozod qilish taqdim etilgan.

1979–1989-yillardagi Afg'oniston urushi yangi muhojirlik to'loqini keltirgan bo'lib, 1982-yil 17-martda qabul qilingan 2641-sonli Qonun ("Afganistan'dan Pakistan'a sığınan Türk soylu göçmenlerin Türkiye'ye kabulü ve iskânına dair kanun") asosida muhojirlar "iskon" (davlat tomonidan joylashtiriladigan) va "sarbast" (erkin) maqomlarida qabul qilingan⁶⁶.

Turgut O'zal va Sulaymon Demirel davrlarida O'zbekiston "Ota vatan" sifatida e'tirof etilgan. Rajab Toyyib Erdog'an 2018-yilda O'zbekiston Oliy Majlisidagi nutqida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning (1891-1938 yy.) "To'fon" she'ridan to'liq yoddan o'qib, Turkiston va Turkiya o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ta'kidlagandi. Xullas Turk hukumati va davlat arboblari muhojir o'zbeklarga nisbatan iliq va adolatli munosabatda bo'lishgan.

⁶³ Togan, A. Zeki Velidi. Hatıralar: 1890–1945. – İstanbul: Dergâh Yayınları, 1969. – S. 450–452.

⁶⁴ Маҳмудов, А. М. Усмонхўжа Пулатхо'жаевнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2022.

⁶⁵ Hayit B. Basmacılar: Türkistan Millî Mücadele Tarihi (1917–1934). – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 1997. – S. 264–266.

⁶⁶ Türkiye Cumhuriyeti. Afganistan'dan Pakistan'a sığınan Türk soylu göçmenlerin Türkiye'ye kabulü ve iskânına dair kanun. Kanun No: 2641. Resmî Gazete, Sayı: 17638, 19 mart 1982.

XULOSA

Tadqiqot natijasida Turkiyadagi o'zbek (turkistonliklar) diasporasining shakllanish tarixi, bosqichlari va hozirgi holati yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Turkiyada o'zbek diasporasining shakllanishi bir necha asrlik tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Usmonli imperiyasi davrida Turkistondan ushbu hududga ko'chib borish jarayonlari, asosan, savdo-sotiq, ilm olish, tasavvufiy aloqalar va haj ziyorati kabi ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida yuzaga kelgan. XV–XVI asrlardan boshlab Istanbul shahri muqaddas ziyoratgohlarga boruvchi turkistonliklar uchun asosiy tranzit va yashash markaziga aylanganligi aniqlandi.

2. XVI asrdan boshlab Naqshbandiya tariqati shayxlari va muridlari tomonidan Turkiyaning yirik shaharlarida (Istanbul, Adana, Bursa, Konya) tashkil etilgan O'zbeklar takkalari (Özbekler tekkeleri) muhojirlar uchun nafaqat diniy maskan, balki ijtimoiy himoya va adaptatsiya markazi vazifasini o'tagan. Ushbu takkalar vatandoshlarning uy-joy, oziq-ovqat bilan ta'minlanishida va mahalliy muhitga integratsiyalashuvida poydevor bo'lgan.

3. XVIII–XIX asrning birinchi yarmida ko'chib borish jarayonlari Usmonli sultonlarining islom olamidagi xalifa maqomi va diniy-mazhabiy yaqinlik (sunnilik) asosida kechgan. Turkiston xonliklari bilan o'rnatilgan diplomatik aloqalar va elchilik almashinuvlari natijasida muhojir o'zbeklarning huquqiy va ijtimoiy mavqeyi mustahkamlanib borganligi asoslandi.

4. XX asr boshlarida (1908–1914-yy.) Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar (yosh turklar harakati) Turkistondagi jadid vakillari va ziyoli yoshlarning ushbu mamlakatga oqimini kuchaytirdi. Istanbuldagi xayriya jamg'armalari va mahalliy turkistonlik sarmoyadorlar ko'magida o'nlab talabalarning ta'lim olishi kelajakda diasporaning intellektual qatlamini yuzaga keltirganligi tahlil qilindi.

5. Sovet davri siyosiy migratsiyasi (1917–1991-yy.): Turkiya o'zbek diasporasining eng yirik va murakkab to'liqlari sovet rejimi o'rnatilishi, bosmachilik (milliy ozodlik) harakati mag'lubiyati, yer-suv islohoti va 1930-yillardagi qatag'onlar natijasida yuz berdi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davridagi asirlar va legionerlarning Turkiyadan panoh topishi natijasida diasporaning ijtimoiy tarkibi diversifikatsiyalashdi.

6. 1950–1980-yillarda Turkiya hukumatining turkiy tilli muhojirlarni (göçmen) qabul qilish va ularga yer-mulk berish borasidagi siyosati (masalan, 1982-yildagi Afg'onistondan ko'chirilgan o'zbeklar) diasporaning son jihatdan o'sishiga xizmat qildi. Yaqin Sharqdagi urushlar va sovet-afg'on urushi o'zbeklarning Turkiya orqali Yevropa va AQShga tranzit migratsiyasiga ham turtki bergan.

7. Bugungi kunda Turkiyadagi o'zbeklar, asosan, o'rta va kichik tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish (turizm, mehmonxona, logistika), bank va moliya sohalarida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, keyingi avlodlar orasidan yuqori malakali shifokorlar, muhandislar, professorlar va hatto davlat boshqaruvi organlari vakillari yetishib chiqqanligi ularning yuqori darajadagi ijtimoiy mobilligini ko'rsatadi.

8. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari va dala materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, Turkiyadagi o'zbeklar soni bo'yicha turlicha (90 mingdan 150 minggacha) raqamlar mavjud bo'lsa-da, bugungi kunda o'zbek milliy o'zligini

anglovchi doimiy istiqomat qiluvchilar soni taxminan 70–75 ming kishini tashkil etadi. Sonlardagi tafovut pasportdagi qaydlar (turkistonlik yoki turk deb yozilishi) va migratsion dinamika bilan izohlanadi.

9. Muhojirlar uzoq yillar davomida o‘zbek tilini, an’anaviy oilaviy qadriyatlarni va milliy oshxonani saqlab qolish uchun ichki “yozilmagan qonunlar”ni (oilaviy til muhiti, xususiy repetitorlik, o‘zbek tilidagi kitoblar mutolaasi) qo‘llaganlar. Mahalliy matbuot va madaniy uyushmalar bu jarayonda asosiy targ‘ibot vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

10. XXI asr boshlariga kelib, diasporada transformatsion jarayonlar kuchayganligi kuzatilmoqda. Keyingi avlodlarda turk va ingliz tillarining ustuvorligi, aralash nikohlar va madaniy differensiyalashuv kuchaygan. Shu bilan birga, Mustaqillik yillarida O‘zbekistondan borgan yangi migratsiya to‘lqini diasporaning til va madaniy muhitini “yangilash” hamda vatan bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

11. Hozirgi kunda Istanbul, Adana, Anqara kabi shaharlarda faoliyat yuritayotgan o‘zbek (turkistonliklar) jamiyatlari diasporani birlashtiruvchi asosiy platformadir. Milliy bayramlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni) va diniy marosimlarning birgalikda nishonlanishi o‘zbek diasporasining Turkiyadagi etnik yaxlitligini ta‘minlash va madaniy merosni kelajak avlodga yetkazishning muhim omili bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Turkiyadagi o‘zbek diasporasining tarixi, madaniyati va hozirgi holatini o‘rganish, shuningdek, ularning madaniy merosini saqlashga ko‘maklashish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Maxsus tarixiy tadqiqotlar o‘tkazish: Turkiyadagi Naqshbandiya taqiyalari (takyalari) tarixi va Turkiya ilm-faniga hissa qo‘shgan o‘zbek olimlarining faoliyati, shuningdek, turkistonlik o‘zbeklarning milliy uyushma, jamiyatlar va matbuot organlari faoliyati mustaqil ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganilishi lozim.

2. Madaniy merosni nashr etish: Turkiyadagi o‘zbeklar madaniyati umummilliy o‘zbek madaniyatining tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning haqida monografik kitob, risola va maqolalar chop etilishi tavsiya etiladi.

3. Elektron resurs yaratish: Mavjud bo‘lgan barcha ma‘lumot, material va tadqiqotlarni to‘plash va tizimlashtirish maqsadida maxsus elektron veb-sayt (portal) yaratish.

4. O‘quv dasturlariga jalb qilish: O‘rta va oliy ta‘lim muassasalarida “Jahon migratsiyasi tarixi” va “O‘zbekiston xalqlari muhojirlik tarixi” kabi fanlar va maxsus kurslarni joriy etishda ushbu mavzuda yozilgan dissertatsiya va ilmiy ishlardan foydalanish.

5. Ilmiy-amaliy forum tashkil etish: “Turkiyadagi o‘zbeklar: tarix va zamonaviylik” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish, unda turk va o‘zbek olimlari, jamoat arboblari ishtirok ettirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**ДЕНАУСКИЙ ИНСТИТУТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И
ПЕДАГОГИКИ**

БЕБИТОВ МАКСУД АБДИРАСУЛОВИЧ

**ФОРМИРОВАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ И СОВРЕМЕННОЕ
СОСТОЯНИЕ УЗБЕКСКОЙ (ТУРКЕСТАНСКОЙ) ДИАСПОРЫ В
ТУРЦИИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (XVI – начало XXI вв.)**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Ургенч – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № B2022.2.PhD/Tar1079.

Диссертация выполнена в Денауском институте предпринимательства и педагогики.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Хаитов Шадмон Ахмадович доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Куршат Йилдирим доктор исторических наук, профессор Матякубова Муборак Мадримовна доктор исторических наук, доцент
Ведущая организация:	Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

Защита диссертации состоится « 12 » сентября 2026 года в 12 : 00 часов на заседании Учёного совета DSc.03/2025.27.12.Tar.06.01 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (зарегистрировано за № 1042). (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, дом 14.). Тел.: (99862) 224-67-00. e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « 29 » август 2026 года

(реестр протокола рассылки № 19 от « 29 » август 2026 года)



У. И. Абдуллаев
председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
исторических наук, профессор

Д.Р. Атамуродова
учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
философии (PhD), доцент

Х. Х. Матякубов
председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор исторических
наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях интенсификации процессов глобализации, региональных конфликтов и социальных трансформаций международные миграционные потоки стали неотъемлемой частью современного миропорядка. На сегодняшний день демографические перемещения обосновываются не только экономическими факторами, но и потребностями обеспечения безопасности, политической стабильности и сохранения национальной идентичности. Миграционные волны, возникшие в силу различных причин на разных этапах исторического развития узбекского народа, привели к формированию в зарубежных странах, в частности в Турецкой Республике, узбекской (туркестанской) диаспоры, обладающей уникальными этнокультурными особенностями. Научное исследование истории формирования, социально-правового статуса и связей данной общности с исторической родиной является одной из актуальных задач, стоящих перед современной исторической наукой.

Узбекская диаспора в Турецкой Республике является стратегически значимым сообществом, обладающим значительным количественным потенциалом и историческими корнями, охватывающими тысячелетний период. Переселение узбеков (туркестанцев) из Центральной Азии в Малую Азию происходило в несколько исторических этапов, и этот процесс послужил своеобразным мостом в укреплении торговых, дипломатических и культурных связей между двумя народами. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев 30 апреля 2018 года в своей речи на встрече официальных делегаций Узбекистана и Турецкой Республики, обращаясь к Президенту Турции и официальной делегации, высказал следующие исторически значимые мысли: «Думаю, вам хорошо известно, что в новой истории в этой стране проживало много представителей узбекской нации, которые внесли достойный вклад в её развитие. Например, о таких известных личностях, как автор первого государственного гимна Турецкой Республики Мехмет Акиф Эрсой, бывший государственный министр Ахад Андижан, депутат Орхан Кавунджу, вы знаете даже больше нас. Турецкий народ считает узбекскую землю священной для себя и почитает её как „землю предков“ (ота юрт)»⁶⁷.

Данное признание на высоком уровне повышает необходимость научного обоснования не только прошлого узбекской диаспоры в Турции, но и её современного социально-политического авторитета. В условиях Нового Узбекистана сотрудничество с соотечественниками за рубежом стало приоритетным направлением государственной политики. В 2017–2025 годах был принят ряд указов и постановлений Президента, направленных на укрепление и совершенствование связей с соотечественниками, проживающими за границей. В частности, создание общественного фонда «Ватандошлар», введение удостоверения и карты «Ватандош», а также

⁶⁷ Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Jild-2. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2018. – B 385.

определение стратегических целей по работе с зарубежными узбеками обуславливают необходимость вывода исследований в области диаспорологии (на примере узбеков Турции) на качественно новый этап. В современных условиях динамичного развития многовекторного сотрудничества между Турцией и Узбекистаном изучение истории узбекской диаспоры в этой стране в трёх измерениях – прошлом, настоящем и будущем – ещё более повышает актуальность данной темы.

Данная исследовательская работа служит реализации приоритетных задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5046 от 19 мая 2017 года, № УП-60 от 28 января 2022 года, № УП-162 от 17 октября 2024 года, № УП-52 от 19 марта 2025 года, а также в Постановлениях № ПП-3982 от 25 октября 2018 года, № ПП-5220 от 11 августа 2021 года и № ПП-397 от 20 ноября 2024 года. Задачи по выводу связей с соотечественниками за рубежом на новый уровень и укреплению их правового статуса, закрепленные в данных нормативно-правовых актах, служат концептуальной основой данной диссертационной работы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В годы советской власти в отношении узбекских (туркестанских) эмигрантов, проживающих в Турецкой Республике и других странах, на основе коммунистической идеологии и теории классовости применялись такие негативные и оскорбительные термины, как «изменники родины», «предатели», «торговцы родиной», «слуги буржуазии», «прихвостни империализма». Эти термины сформировали однотипное негативное отношение к эмигрантам.

В связи с тем, что тема узбеков-эмигрантов была запрещена в советский период, в советской печати и литературе практически не встречается достоверных сведений о турецкой эмиграции. В отдельных изданиях, написанных по специальным указаниям, эмигранты описывались исключительно с точки зрения критики и осуждения, что приводило к появлению необъективной информации. В связи с этим исследования по данной теме можно разделить на две группы:

Исследования и труды, созданные в Узбекистане в годы независимости.
Зарубежная литература.

На заключительном этапе советской власти, в период провозглашения лозунгов перестройки, гласности и демократии (1985–1991 гг.), а также в первые годы независимости интерес к теме «узбекской эмиграции» возрос. По этой ранее запретной теме в узбекской прессе впервые начали публиковаться материалы в жанрах диалога, личной беседы, статьи и

сообщения. Целью данных материалов было знакомство узбеков, проживающих за рубежом, с узбеками Узбекистана.

Обилие информации в газетах и журналах затрудняет их полный охват. По этой причине было признано целесообразным перечислить сведения и статьи, касающиеся исключительно истории узбеков в Турецкой Республике.

В начале 1990-х годов были опубликованы статьи таких авторов, как Тура Мирзо, Тохир Каххор, Собир Сайхон, Бурибой Ахмедов, Ф. Джураев, Раджаббой Ота Турк (Раупов Р.), Шахобиддин Яссавий, Ислон Усмонов, Азим Суюн, Р. Шамсутдинов, Ш. Турдиев⁶⁸. В этих статьях была представлена информация об узбеках в Турции и их родственниках в Узбекистане. Также значительные суждения были высказаны в статьях об узбекской интеллигенции в Турции.

